

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI IQLIM SHAROITIDA ISTIQBOLLARI
YUQORI BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIK ASTRAGALUS VILLOSISSIMUS BUNGE

Janibekov Abdulaziz Adilxanovich¹, Tajibaeva Salima Marqabaevna²

¹*Alfraganus Universiteti*

¹*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaliği va agrotexnologiyalar instituti*

Astragalus villosissimus Bunge ósimligi Qoraqalpog'iston iqlim sharoitida yuqori istiqbolli tur sipayida uning biologik va ekologik xususiyatlari sharq keltirilgan. O'simlik cho'rangan tuproqqa chidamliги, cho'l hududlarga moslashgan va biomassadagi mineral tuzlarni akkumulyasiya qilish xususiyatlari tufayli, ushbu turni cho'rangan va degidratsiyaga uchragan yerlarni fitomelerativ holatini tiklash maqsadlarida amalga oshirsh mumkun, shu bilan birga ekosistemani tartibga solib qoymastan inson organizmi uchun shifobaxsh bo'lgan dorivor o'simlik xom ashyo zahirasini oshirishga o'z qissamizni qushgan bo'lamiz.

Astragalus turkumi o'simliklari tarkibini hár xil biologik faol birikmalar: alkaloidlar, saponinlar, flavonoidlar, taninlar, fenolkarboksil kislotalar, kumarinlar, aminokislotalar va polisaxaridlardan tashkil topgan. Hozirgi vaqtida jahonda Astragalus ósimliklarining ba'zi bir turlari asosida tibbiyotda qo'llaniladigan dori vositalari ishlab chiqarishmoqda [1].

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida A. villosissimus o'simligi tarqalishi, ma'lum bir o'simlik turkumlari bilan birga uchrashi hamda areali o'rganilgan. Hudud bo'ylab o'simlik qumli, bo'z va gipsli tuproqlarda tarqalishi bo'yisha kartalari qilingan [2].

Ishning maqsadi adabiyotlardagi o'simlik haqqidagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi florasida dorivor o'simlik A. villosissimus yetishtirish istiqbollarini baholashdan iborat.

A. villosissimus – cho'rangan tuproqda o'sadi, chól iqlimga moslashgan. O'simlik endemik hisoblanib O'rta Osiyononing sharqiy chóllarida keng tarqalgan. Ko'p yillik, efemeroid buta bo'lib, uzinligi odatta 60-80 sm dan 1 m gasha bo'ladi, 12 yilgasha yashashi mumkun. Oppoq ildizi quruq gipsli tuproqlarda 1 m gesha chuqurlikgasha joylashishi mumkin. O'simlikning vegetatsiya davri mart oyida boshlanadi, moy oyida gullaydi va iyun oyida mevalaydi [3].

Fabacea oilasi atrof-muhitga va qishloq xo'jaligiga ahamiyati juda katta bo'lib, ular atmosferadagi ammiak, nitratlarni óziga yutib organik azotni ishlab chigarishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Fabacea oilasi chól va yarim chól muhitlarning tarkibiy qismi hisoblanadi hamda azotli birlashtirish faolligi tupayli tuptoq unumdorligini oshiradi [4].

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlardan keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib A. villosissimus chól hududlarda, asosan Qoraqalpog'istonda fitomeliorativ va ekosistemani yaqshilashda hamda farmasevtika sanoatini xom ashyo zahirasi bilan ta'minlashda istiboli yuqori bo'lgan dorivor o'simlik deb baholasak bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. И.Е. Лобанова. Фитохимическая характеристика Astragalus Glycyphyllos (Fabaceae). Растительный мир Азиатской России, 2011, № 1, с. 87–90.
2. Тодерич К.Н., Попова В.В., Арапова Д.Б., Гисматулина Л.Г., Рекик Мурад и Раббимов А.Р. Галофиты и солеустойчивые растения в качестве корма животных на уровне фермерских хозяйств в Каракалпакстане. Research program on Dryland Systems. Ташкент – 2016.
3. Гончаров Н.Ф. Род Astragalus L. // Флора Узбекистана. – Ташкент: Изд-во АН УзбССР, 1955. – Т. 3. – С. 473–686.
4. Sayed Hamid Matinkhah, Habib Yazdanshenas, Mojtaba Sheikhzadeh Nitrogen-fxing potential of Halimodendron halodendron (Pall.) Voss in arid and semi-arid areas of Iran.

Received: 14 July 2020 / Accepted: 24 September 2020